

## TA'LIM BERISH METODIKASI

**Raximboyeva Mukaddas Yuldashevna**

Xorazm viloyati Urganch shahri

13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchilari

**Kuchkarova Shoxnoza Baxodirovna**

Xorazm viloyati Urganch shahri

13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchilari

**Kuvakova Dilorom Alimovna**

Xorazm viloyati Urganch shahri

13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchilari

### Annotatsiya

Ushbu mavzu "Ta'lim berish metodikasi" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, "BBB" metodi va Aqliy hujum metodi bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirildi. Ushbu mavzudan kelgusida o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** "BBB" – Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim Pinbord - ignalar yordamida "Aqliy hujum" - Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etishi Sxema – metodlarning jadvallardagi ko'rinishi

### "BBB" metodi

Ushbu metod o'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

Har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi. Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O'quv faoliyati bevosita sinf doskasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi jadval (1, 2) asosida tashkil etiladi.

1-jadval.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

2-jadval.

<b>Mavzu:</b> <b>Mavzuga doir asosiy tushunchalar</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
1.			
2.			
3.			
...			

Metodan foydalanish 3 bosqich asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladilar.

O'quvchilarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi. (bo'shliqlar, darslar jarayonida to'ldirib boriladi )

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tavsiloti quyidagicha:

Sinf o'quvchilarning (individual guruhlarda) ishlashlari e'lon qilinadi.

O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajasi o'rganiladi va ular tomonidan bayon etilgan tushunchalar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi.

O'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi va bu ehtiyojlar jadvalning 2-bandiga yoziladi.

O'qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan o'quvchilarni xabardor qiladi. O'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yoziladi.

### **“Aqliy hujum” metodi**

Mazkur metodda biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki “pinbord” doskasiga (ignalaryordamida) mahkamlanadi. “Aqliy



hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo’yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir.

Ushbu metod to’g’ri va ijobiy qo’llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o’rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo’ladi, shu jumladan, ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilarda o’z fikrini faqat og’zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g’oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo’yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:**

- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo’yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi;
- mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog’lash maqsad qilib qo’yilganda, yangi mavzuga o’tish qismida amalga oshiriladi;
- o’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo’yilganda mavzudan so’ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**“Aqliy hujum” metodini qo’llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g’oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g’oyalar, ular hatto to’g’ri bo’lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

**“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi.**




## “Aqliy hujum” metodining bosqichlari

- 1 • Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi.
- 2 • Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr - mulohazalarini bildirishadi.
- 3 • Ta’lim oluvchilarning fikr - g‘oyalari (diktofonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi.
- 4 • Fikr - g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
- 5 • Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

## “Aqliyhujum” metodining afzalliklari:

- ✓ Natijalar baholanmasligi ta’limoluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ✓ ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- ✓ fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ✓ ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ✓ ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “KASBIY TA’LIM METODIKASI” o’quv-uslubiy majmua
2. “Pedagogika” O’.Yuldashev
3. “Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot” M.O’smanbayeva, O’.Tolipov
4. “Matematika o’qitish metodikasi” o’quv qo’llanma Toshkent-2020
5. “Ta’limning interfaol metodlari vositasida dars o’tish bo’yicha o’qituvchilar uchun metodik tavsiyalar” M. Meliqo‘zieva Toshkent-2014.

